

Biblioterapiya

Inson salomatligini tiklashda bir necha davolash usullari mavjud, kitoblar vositasi orqali davolash biblioterapiya deyiladi.

Tushkinlik hayotidan qoniqmaslik, ruhiga zid narsalardan ovunch izlash bugungi kun odamlarining xususiyatiga aylangan, kitob mutoalasi ortiqcha tuyiladi. Ammo biblioterapiya imkoniyatlarini unutib bo'lmaydi. Shu o'rinda takidlash joizki ruhiy holatga mos keladigan asarni tanlash kitob mutolaa qilish kishi ruhiyatini pazitif tomonga yo'naltiradi. Biblioterapeftlar fikriga ko'ra kitob mutoalasi jarrohlik quroliga ega emas, lekin kishi ruhiyatini o'zgartiradi har qanday kitobdan nimanidur o'rgata oladi, eng siyiq fikirlovchi muallif ham nimadir o'rgata oladi. Ammo bu duch kelgan kitobni o'qish kerak degani emas insonning yoshi qiziqishlari inobatga olinishi zarur. Hayotiy maqsadni ikkinchi uchinchi narsalardan farqlay olish, vaqtdan unumli foydalanish, qat'iylik ko'rsatish o'zlikni asray bilish, umirni sermazmun o'tkazish, bularning barchasiga kitob davat etadi, zeroki hayot saboqlarini sirlarini kitob o'rgata oladi.

Yangi O'zbekistonimiz bugungi tezkor taraqqiyot davrida, har tomonlama sobitqadamlik bilan borayotgan bir davirda xalqimizning, kelajagimiz egalari hisoblanmish o'sib kelayotgan yosh avlodning, ma'naviy imunitetining mustahkam bo'lishi hamma davr uchun birdek muhimdir. Jamiyat hayotida qadriyatlar va an'analarning qaror topishida xalqimiz ayniqsa yoshlarning ma'naviy inteluktuval salohiyatini oshirishda, ta'fakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biri kitobxonlik yoshlar mutola madaniyatini shakillantirish rivojlantirishdir. Biblioterapeftlar kam kitob o'qish yoki umuman o'qimaslik salbiy oqibatlarini ko'pligini takidlaydi. Yosh onalar farzandlarining mustaqil fikirlay olmasliklari haqida juda ko'p aytadilar, bu esa onaning bolaga kitob o'qib bermasligi yoki o'sha xonadonda umuman kitob mutolaa qilinmaslikning oqibatidir, bunday holatlar ma'naviy qashoqlik va ojizlikni keltirib chiqaradi.

Biblioterapiyaning eng muhim jihati hayotga ishonch, tiriklikdan zavq olish, umridan minnatdor bo'lib yashash hisini uyg'otishdir.

Do'stlik tuman AKM Bibliografiya xizmati bibliografi: Sevara Mamarajabova